



TABLE OF CONTENTS

07.00.00 - "HISTORY"

Nuriddinov Erkin Zukhriddinovich. Interethnic dialogue of cultures is an important factor in the development of public diplomacy.....	31
Allaberganov Sherali Yoldashevich. Demographic changes in Khorezm during the second world war and its consequences.....	36

09.00.00 - "PHILOSOPHY"

Rasulov Ortiq Yaqubovich. Aziziddin Nasafi's philosophical views on human creation.....	9
Ismailov Dilshod Bakhriddinovich. The role of professional spirituality of a civil servant in the hierarchy "Man – society – state".....	39
Khamdamov Erkin Ibodullayevich. Social and political principles in Ziya Gokalp's work "the right way".....	43

The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843.

According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 - "History", 09.00.00 - "Philosophy", 10.00.00 - "Philology" according to; 2023 of the OAK Board According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. - "Legal Sciences", 13.00.00. - "Pedagogy", 19.00.00. "Psychology".

AZIZIDDIN NASAFIYNING INSON YARALISHI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

Rasulov Ortig Yaqubovich

Termiz davlat universiteti “Falsafa” kafedrası o’qituvchisi



e-mail:

ortiq.rasulov@mail.ru

AZIZIDDIN NASAFI'S PHILOSOPHICAL VIEWS ON HUMAN CREATION

Rasulov Ortig Yaqubovich

Teacher of the Department “Philosophy” of Termiz State
University

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АЗИЗИДИНА НАСАФИ НА СОТВОРЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА

Расулов Ортик Якубович

Преподаватель кафедры “Философия” Термизского
государственного университета

[https://orcid.org/
0009-0002-7050-9630](https://orcid.org/0009-0002-7050-9630)

Tel.: +998 90 322 22 90

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIII asrda yashab ijod qilgan alloma va mutasavvif Aziziddin Nasafiyning hayoti va faoliyati yoritilgan. Shuningdek, allomaning falsafiy-antropologik qarashlari, inson yaralishi borasida qarashlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Aziziddin Nasafiy, komil inson, falsafa, inson yaralishi, borliq, inson mohiyati.

Annotation: This article reveals the life and work of Aziziddin Nasafi, a scholar and mystic who lived and worked in the 13th century. Philosophical and anthropological views of scholars, views on human creation are also analyzed.

Keywords: Aziziddin Nasafi, perfect man, philosophy, human creation, existence, human essence.

Аннотация: В данной статье раскрывается жизнь и деятельность Азизиддина Насафи – учёного и мистика, жившего и творившего в XIII веке. Также анализируются философские и антропологические взгляды ученых, взгляды на творчество человека.

Ключевые слова: Азизиддин Насафи, совершенный человек, философия, человеческое творчество, существование, человеческая сущность.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Insonning yaratilishi va uning mangulikka qaytishi muammosi Aziziddin Nasafiy falsafasida muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻrta asrlar falsafiy tizimida mazkur muammo oʻziga xos tarzda tahlil etilgan boʻlib, aksariyat olimlar ushbu masalaga ilohiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashganlar. Ular insonning yaratilishiga oid oʻz qarashlarini imkon qadar rasmiy diniy doktrinialarga moslashtirishga uringanlar. Hatto oʻsha davrlarda vujudga kelgan, oʻziga xos yangicha, erkin qarashlar ham qatʼiy artodoksial qarashlarning taʼsiridan chiqib keta olmagan. Masalan, oʻrta asrlarda musulmon sharqida keng yoyilgan: peripatetiklar, kalom, tasavvuf, ishroq, ismoiliya kabi falsafiy–diniy taʼlimotlar ham insonning yaratilishi haqidagi

qarashlarini islom shariati imkon bergan daraja doirasida ifoda qilganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Oʻz davrining koʻzga koʻringan mutasavvuf olimi sifatida Aziziddin Nasafiy ham inson yaratilishi haqidagi masalalarda Ibn Sino, Ibn Arabiy, Suhravardiy kabi mutafakkirlarning taʼlimotlariga tayangan. Nasafiyning asarlarida oʻrta asrlarda keng yoyilgan falsafiy maktablarning taʼlimotlari tahlil etilar ekan, u ushbu taʼlimotlarga tayangan holda insonning vujudga kelishi haqidagi oʻz mulohazalarini bayon etadi. Nasafiyning ushbu mulohazalari islom shariati qarashlaridan biroz farq qilib, bu farq oʻz davriga

nisbatan yangicha, ilg'or g'oyalar sifatida baholanadi. [1]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonning yaratilishi haqidagi muammoga o'z davrida Ibn Sino yetarlicha e'tibor qaratadi. Biroq, Ibn Sino ushbu masalaga oid yaxlit asar qoldirmagani bois, uning qarashlari turli asarlarda tarqoq holda bayon etiladi. Aziziddin Nasafiy insonning vujudga kelishi muammosiga bag'ishlab alohida asar yozgani bois, uning mazkur masaladagi qarashlari izchil ifodalanadi. [3]

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Aziziddin Nasafiy islom dinidagi olamning yaratilishi konsepsiyasiga tayangan holda borliq evolyutsiyasining ikki bosqichiga diqqat qaratadi:

Birinchi – tushish, (nuzil) bosqichi. Unga ko'ra, barcha narsalarning ibtidosi Xudo bo'lib, dastlab aql, keyinchalik ruh va tabiat, boshqa mavjudotlar o'z darajasiga muvofiq tarzda Xudodan vujudga keladi. [4]

Ikkinchi ko'tarilish – (uruj) bosqichi. Unga ko'ra, dastlab tabiat, ruh, so'ngra aql kabi yaratilgan mavjudlik o'z darajasiga mos tarzda Xudoga qarab ko'tarilib boradi. Shu tarzda olamning yaratilish ibtidosi Xudodan boshlanib, so'ngra yana Xudo bilan yakunlanadi. [2]

O'rta asrlar falsafasida insonning yaratilishi muammosiga izchil mantiqqa asoslangan bu kabi yondashuv faqat Aziziddin Nasafiyning qarashlarida kuzatiladi. Boshqa falsafiy maktablarning, ayniqsa, Ibn Sinoning qarashlarida mazkur masala g'oyat murakkab va sabab-oqibat nuqtayi nazaridan talqin etiladi. Ibn Sino olam yaratilishining tushish (nuzul) bosqichini yetarlicha asoslaydi. Biroq, faylasuf ko'tarilish (uruj) bosqichiga diqqat qaratmaydi. Bu yerda Nasafiyning olam yaratilishi haqidagi birinchi bosqich (nuzul) g'oyasi peripatetiklar ta'siri ostida shakllanganini kuzatamiz. Uning ikkinchi bosqich ko'tarilish (uruj) g'oyasiga esa, tasavvuf ta'limotining ta'siri ochiq namoyon bo'ladi. Shu bois, Nasafiyning borliqning yaratilishi haqidagi qarashlarini tom ma'noda ikki yondashuvning o'ziga xos sintezi sifatida qabul qilish mumkin. Shuningdek, Nasafiyning mazkur yondashuvi shunisi bilan ham e'tiborga loyiqki, uning markazida inson muhim o'rin tutgani bilan ham ahamiyatli [5].

Aziziddin Nasafiy olamning yaratilishi haqidagi qarashlarini shariat ilgari surgan doktrina

bilan kelishtirishga harakat qiladi. Biroq, uning qarashlaridagi peripatetik va tasavvuf falsafasining ta'siridan tashqari yaratilish vaqtiga oid qarashlari ham shariat o'rnatgan g'oyalarga mos kelmaydi. Masalan, Nasafiyga ko'ra, olamning yaratilish vaqti shariat vakillari ta'kidlaganidek, bir lahzada emas, 40000 yillar oralig'ida davom etadi. Xuddi Ibn Sino va Forobiy kabi Nasafiy ham o'z qarashlarini peripatetiklarning g'oyalari bilangina chegaralanib qolmay, boshqa falsafiy maktablarning qarashlari bilan ham muqoyasa qiladi. [3]

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, insonning yaratilishi haqidagi g'oyalar olamning vujudga kelishi haqidagi qarashlarning bir qismi bo'lib, Nasafiy mazkur hodisani substansiya va aksidensiyalarning o'zaro munosabati sifatida baholaydi. Nasafiyga ko'ra, olam substansiya – javhar hamda tasodif va o'zgarishlarning sababchisi aksidensiyalardan iborat. U moddiy va ma'naviy olamga ega jismdan iborat ushbu olamlarni Nasafiy o'z belgilariga muvofiq ajratadi. Inson moddiy olamni sezgilari orqali, ma'naviy olamni esa aqli bilan idrok qiladi.

Nasafiyning inson tabiatiga oid o'ziga xos qarashlaridan biri bu, inson mohiyati uning kelib chiqishini belgilaydi, degan qarashidir. Ushbu qarash o'rta asrlar falsafasiga xos mulohaza bo'lib, barcha mavjudotlarning ibtidosi ularning kelib chiqqanligini ko'rsatadi, degan fikrni ifodalaydi. Bu ma'noda Nasafiy quyidagi mulohazalarni keltiradi: "Faylasuflar bundoq aql yuritadi: insonning otonasiz vujudga kelishi mumkin emas, biroq uning ota yoki onasi hamisha ham odam avlodidan bo'lishi shart degani emas. Axir barcha mavjudlik, xususan, inson ham boshqa tirik mavjudotlar kabi yagona mohiyatdan vujudga kelgan-ku. Axir, havoda, suvda, yerda yashayotgan barcha qurt-qumursqalar ham faqatgina o'z avlodidan vujudga kelavermagan. Aytishlaricha, Xin Manshun deb nomlangan bir hududida yilning muayyan faslida yomg'irlar mavsumidan so'ng havoda qo'yning o't pufaklari paydo bo'larkan va undan asalarilar vujudga kelarmish. Bundan ko'rinib turibdiki, inson tug'ilishi uchun hamisha ham odam zoti, hayvon dunyoga kelishi uchun esa hayvon zoti zarur bo'lavermaydi"[2].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Biologik nuqtayi nazardan Nasafiy inson organizmidagi urug'donni substansiya deb

ataydi. U o'zini turli shakl va miqdorda namoyon qilish uchun intiladi. U hech qanday tashqi ta'sirlarsiz ham o'z-o'zini namoyon etish xususiyatiga ega. Odamdagi barcha organizmlarda urug'donning imkon kuchi mavjud.

Nasafiy o'zining "Inson ul-komil" asarida urug' ona qorniga joylashishi bilan yumaloq shaklga kirishini ta'kidlaydi. Chunki suv o'z shakliga ko'ra yumaloq sanaladi. Urug' ona qornidagi harorat ta'sirida asta-sekin rivojlanadi va uning yumshoq to'qimalari paydo bo'ladi. Urug'ning quyuq qismi markazga tortiladi, siyrak qismi periferiyada qoladi. Shu tarzda quyuq va siyraklik darajasiga ko'ra unda to'rtta qatlam ajraladi. Va ular qobiq kabi o'ralgan shaklda bo'ladi". [2]

Aziziddin Nasafiy biologik nuqtayi nazardan odamning vujudga kelish jarayonini tabiatdagi to'rt unurning o'zaro kombinatsiyasiga qiyoslab talqin qiladi. U har bir unurning o'ziga xos jihatlarini tavsiflab o'tadi. Masalan, u urug'dagi tuproq unsurini markaziy unsur sifatida ko'rib, uni quruq va sovuqlik sifati bilan ataydi. Nasafiy ushbu tavsifni quyidagicha keltiradi:

"Urug'ning markazi savdo deb ataladi. Insondagi o't ham xuddi tuproq kabi quruq va sovuq tabiatga ega. Keyingi unsur suv bo'lib, u markazga yaqin turadi, shuning uchun insondagi balg'am markaz usti qatlam sanaladi, u nam va sovuq xususiyatga ega" [2]. Keyingi qatlam havo unsuri kabi nam va issiq xususiyat kasb etadi va u ustki qobiqqa yaqin. Insondagi qon bu qobiqning alomati hisoblanadi. To'rtinchi unsur olov bo'lib, u insondagi safroga to'g'ri keladi hamda quruq va issiq jihatni aks ettiradi" [2].

Aziziddin Nasafiy urug'dagi to'rt unurning o'zaro aralashish jarayonini ona qornidagi homilaning dastlabki bosqichi sifatida ko'rsatadi. Urug' tabiatidagi unsurlarning rivojlanishi avval mineral so'ngra, o'simlik va hayvon shakliga kirishining sababi bo'ladi. Nasafiyga ko'ra, olamdagi barcha tirik mavjudotlar ana shu to'rt unurning qorishmasidan yuzaga keladi. Insonning ichki va tashqi organlarining ham barchasi havo, suv, tuproq, olov unsurlarining qorishmasidan paydo bo'ladi..."[2].

Faylasufning fikricha: "Har bir organ muayyan miqdorda qon, safro, balg'am va savdoga ega bo'ladi. Organizmlarning funksiyasiga ko'ra, ularda ushbu unsurlarning miqdori taqsimlanadi. Odamning tashqi va ichki organizmlarning to'la shakllanishi natijasida, oziqlanish, sezish, harakatlanish jarayoni boshlanadi. Oziqlanish bosqichining boshlanishi mineral bosqichining yakunlanganini anglatadi". [2]

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'rta asrlarda yashab o'tgan mutafakkir sifatida Aziziddin Nasafiy inson yaratilishi haqidagi qarashlarini islom shariatiga muvofiqlashtirishga harakat qiladi. Shunga qaramay, uning qarashlarida peripatetiklar hamda tasavvuf falsafasining ta'siri ko'proq namoyon bo'ladi. Aziziddin Nasafiy insonni kichik olam – olami sug'ro deb ataydi. Unga ko'ra, katta olam – olami kubrodagi barcha o'zgarishlar kichik olamda, xususan, insonda o'ziga xos tarzda takrorlanadi. Aziziddin Nasafiyning fikricha, inson mavjudligining mohiyati uning urug'donida aks etib, u o'simlik ruhi, hayvon ruhi, inson ruhi kabi evolyutsion bosqichlarni boshidan kechiradi. Shuningdek, faylasuf aql faqatgina insonga xos ekanligini ta'kidlab o'tadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdukarim Beozori Sherozi. Qur'on va tabiat. – Tehron: 2000. – 211 b.
2. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq, Haqiqatlar qaymog'i // Tarjimon: Najmiddin Komilov. – T.: Kamalak, 1996. – 132 b.
3. Зарринкуб Абулхусайн. Жустужу дар тасаввуфи Эрон. – Техрон:1357. – С. 151-153.
4. Зиёев И. Проблема человека в философии Мухаммада Икбала. – Душанбе: 1996. – 101 с.
5. Муртазо Мутахаррй. Инсони комил. – Техрон: Донишгох, 1372. – 380 б.
6. Насафи Азизуддин. Кашф ул-хакоик. – Техрон: 1365. – 320 с.